

**ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB”
ASARIDA USTOZ TIMSOLI****Zarinabonu Qahhorova**

Qarshi davlat universiteti talabasi

E-mail: zarinaqahhorova1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning nasriy merosining yirik namunalaridan biri bo‘lgan “Mahbub ul-qulub” asarida ustoz timsolining badiiy va ma’naviy talqini tahlil etiladi. Asarda ustoz shaxsiga berilgan baho, uning jamiyatdagi o‘rni, shogird tarbiyasidagi roli hamda ilm-ma’rifatni yoyishdagi ahamiyati zamonaviy pedagogik qarashlar bilan qiyosiy yondashuvda ko‘rib chiqiladi. Maqola davomida Navoiy qalamiga xos didaktik uslub, axloqiy-estetik g‘oyalar va ustoz-shogird munosabatlarining tarixiy-falsafiy ildizlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari ustoz siymosining o‘tmish va bugun uchun tutgan o‘rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub, ustoz timsoli, shogird tarbiyasi, didaktik asar, ma’naviy meros, pedagogik qarashlar, axloqiy-estetik g‘oyalar, , Hibat ul-haqoyiq, Sharq nasriy merosi.

Аннотация: В данной статье рассматривается образ наставника в одном из выдающихся прозаических произведений Алишера Навои — «Махбуб ул-кулуб». Анализируется художественно-нравственное осмысление фигуры учителя, его роль в обществе, влияние на воспитание ученика и значение в распространении знаний. Особое внимание уделяется дидактическому стилю Навои, его этико-эстетическим идеям и философско-историческим основам взаимоотношений между учителем и учеником. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию значения образа наставника как в прошлом, так и в современности.

Ключевые слова: Алишер Навои, Махбуб ул-кулуб, образ наставника, воспитание ученика, дидактическое произведение, духовное наследие, педагогические взгляды, этико-эстетические идеи, Хибат уль-хакаик, прозаическое наследие Востока.

Annotation: This paper explores the symbolic and philosophical portrayal of the teacher figure in Mahbub ul-qulub, one of the most prominent prose works of Alisher Navoi. The study delves into Navoi’s evaluation of the teacher’s identity, their pivotal role in society, influence in nurturing disciples, and contribution to the dissemination of knowledge. These themes are examined in dialogue with contemporary pedagogical theories. The article highlights Navoi’s distinctive didactic style, the moral and aesthetic values embedded in his prose, and the historical-philosophical foundations of the teacher-student dynamic. The

findings offer a deeper insight into the enduring relevance and significance of the teacher archetype in both past and present contexts.

Keywords: Alisher Navoi, Mahbub ul-qulub, teacher archetype, disciple education, didactic literature, spiritual heritage, pedagogical perspectives, moral and aesthetic ideals, Hibat ul-haqoyiq, Eastern prose tradition.

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida shunday siymolar borki, ularning ijodiy merosi bir necha asrlar davomida nafaqat adabiy, balki axloqiy, ma'naviy va pedagogik tafakkur taraqqiyotiga ham beqiyos hissa qo'shgan. Ana shunday ulug' zotlardan biri – Alisher Navoiydir. Alisher Navoiy o'zining boy va sarmazmun ijodi orqali nafaqat adabiyot, balki axloqiy-tarbiyaviy qadriyatlarni ham ulug'lagan buyuk mutafakkir va beqiyos shaxsdir. Uning nasriy asarlari orasida alohida o'rin tutadigan “Mahbub ul-qulub” – bu xalqparvarlik, insonparvarlik va komil inson tarbiyasi haqidagi chuqur falsafiy mulohazalarga boy durdonadir. Ushbu asarda Navoiy turli toifa insonlar, ularning fazilat va illatlari haqida hikoya qilarkan, ustoz timsoliga ham alohida e'tibor qaratadi. Ustoz shaxsining jamiyatdagi o'rni, shogird tarbiyasidagi ta'siri va ilm-ma'rifat tarqalishidagi roli haqida ifodalangan fikrlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Asar ma'naviyat, axloq, ijtimoiy adolat va komil inson tarbiyasi haqidagi chuqur mushohadalarga boy bo'lib, zamonlar osha insoniyat uchun ibrat maktabi bo'lib kelmoqda.

“Mahbub ul-qulub” – bu oddiy nasriy risola emas, balki o'z davri jamiyatining axloqiy-ma'naviy holatini tahlil qiluvchi, turli tabaqa vakillari haqida chuqur mulohazalar yurituvchi, ularning fazilat va nuqsonlarini sinchkovlik bilan ochib beruvchi nodir asardir. Mazkur asarda Navoiy, o'ziga xos uslubda, har bir kasb egasi, ijtimoiy qatlam, insoniy fazilat va illatlar haqida alohida boblar ochgan holda, o'sha davr ijtimoiy ongidagi eng dolzarb masalalarni yoritadi. Ayniqsa, ustoz-shogird munosabatlari, ilm ahlining jamiyatdagi o'rni, ta'lim va tarbiyaning mohiyati haqida bildirgan fikrlari bugungi pedagogik qarashlar bilan uzviy bog'lanib ketadi. Asar tarkibidagi “Mudarrislar zikrida” hamda “Dabiriston ahli zikrida” nomli fasllar aynan ustoz timsoli, uning shaxsiy fazilatlari, kasbiy mas'uliyati, axloqiy jihatlari va shogird tarbiyasidagi roli kabi mavzularni yoritishda muhim manba sifatida maydonga chiqadi. Bu fasllarda muallimlik kasbi faqat ilm berish emas, balki ma'naviy yo'l-yo'riq ko'rsatish, jamiyatni ruhiy yetuklik sari yetaklashdek ulug' vazifa sifatida talqin etiladi. Ustoz obrazining bunday yuksak darajada badiiy-falsafiy yoritilishi Navoiy ijodining chuqurligi va doimiy dolzarbligini yana bir bor isbotlaydi.

“Mahbub ul-qulub”ning 18-faslida dars beruvchi o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi: “Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qiladi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin. Shunisi ham borki, u to'dada

fahm-farozlar bo‘ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo‘ladi. Har qanday bo‘lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko‘pdir. Shogird agar shayxulislom yoki qozi bo‘lsa ham, ustozidan rozi bo‘lsagina Tangri ham undan rozi bo‘ladi va uni yorlaqaydi. Navoiy o‘z asarlarida doim ustoz timsolini yuqori tutadi. Misol uchun ushbu baytda shogirdlarning ustoz oldidagi burchlari va qarzdorligi haqida aytib o‘tadi:

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘rgatmish ranj ila,

Aylamak oson emas oning haqin yuz ganj ila.

Ya‘ni, kim senga hattoki bir harf o‘rgatsa ham u senga ustozdir va sen uning xizmatini yuzta xazina bilan ham to‘lab ado qila olmaysan. Navoiy bu orqali ustozlar mehnatining bebeho ekanligini, shogirdlar umrbod ular oldida qarzdor ekanligini ta‘kidlaydi. U muallimlarni johil va zolim bo‘lishidan qaytargan. Darhaqiqat, johil muqllimlar yosh bolalarga jafokashdirlar. Ular bolalarni azoblashga, kaltaklashga o‘rgangan, g‘azabli, qoshlari chimirilgan, gunohsizlar bilan achchiqlanishga odatlangan. Ularning ko‘pchiligining ko‘ngli qattiqligi va ta‘b xastaligi ma‘lumdir. Ular qiynash va do‘q-po‘pisa bilan yosh bolaning tabiatini tartibga solib, uni o‘ziga bo‘ysundirmoqchi bo‘ladi. Ulardagi bu qo‘pollik yosh bola tarbiyasini silliqdashda egovga qiyoslanadi.

Ilmiga amal qilish, o‘rganganlarini hayotga tadbiq etish masalasiga Navoiy alohida e‘tibor beradi. Masalan, u “Mahbub ul-qulub” asarida ilm o‘qib uni ishlatmagan kishi urug‘ sohib hosildan bahra olmaganga o‘xshaydi, deydi.

Ilm o‘qib qilmagan amal maqbul,

Dona sohib ko‘tarmadi mahsul.

Asarning 14-fasli mudarrislar haqida bo‘lib, unda ilm o‘rgatuvchi insonning qanday bo‘lishi kerakligi bayon qilinadi. Navoiy fikricha, ularning niyati mansab bo‘lmasligi lozim. O‘zi chuqur bilmagan bilimlarni so‘zlashdan qaytarilgan va jahldor bo‘lmoqlikdan qaytarilgan. Diniy ulamolar dinni chuqur bilishi, suhbatini maqomiga yarasha bo‘lmog‘i lozim. Chunki, ular islom ilmini boshqalarga o‘rgatadi. Diniy ustoz sifatida Alloh va Rasulining ko‘rsatmalarining hayotdagi namunasi bo‘lishi kerak.

Har ne aytur bo‘lsa Xudovu Rasuldin,

Andin so‘ng o‘lsa mujtahidu avliyo so‘zi.

Andin kishi ne kim eshitur yoki o‘rganur bo‘lsa,

Xudo so‘zi yo‘q esa Mustafo so‘zi.

Navoiy yoshlarga chuqur ilm berishda ustozlarning, mudarrislarining hamda muallimlarning o‘zlari ham bilimli va tarbiyali bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Bunday ustozlar shogirdlari yonida yuzlari yorug‘ bo‘lib, doim hurmat-izzatda bo‘ladi.

Navoiy asarlaridagi ijtimoiy mavzular, axloqiy qarashlar undan avvalgi davrlarda ham muhim bo‘lgan. Masalan, Ahmad Yugnakiyning mashhur “Hibat ul-haqoyiq” asarida ham ilm -ma’rifat ulug‘lanadi, bilimli kishilarni qadrlashga, ulardan ta’lim olishga chaqiriladi.

So‘ngakka ilikdur, eranga – bilik,

Biliksiz eran – ul iliksiz so‘ngak.

Baytdan ko‘rinadiki, bilim insonni bezovchi fazilatdir. Ilmsiz inson so‘ngaksiz suyakka mengzanadi, ya’ni u foydasiz va hech kimga kerak emas. Ilm-u ma’rifat insonni inson qiladi. Yugnakiy bilim o‘rgatuvchilar, shu bilan birga ilm izlovchilar qadrini yuksaltiradi, ilimli bo‘lishning har bir musulmon uchun farz ekanligiga ham ishora qiladi:

Olim yuksaladi bilimi bilan,

Bilimsiz kishilar bo‘ladi tuban.

Bilimli bo‘l, sira erinma, Rasul

Kim bilimli bo‘lsa, ulug‘lang degan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning komil insonni tarbiyalashga qaratilgan fikr mulohazalari, uning axloqiy-ta’limiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning fikrlari o‘zidan avvalgi davrda yashab o‘tgan allomalarning bu sohadagi qarashlariga, shuningdek, shaxs tarbiyasidagi an’anaviy Sharq ta’lim-tarbiya yo‘l-yo‘riqlariga asoslanadi. Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida ustoz timsolini yaratishda nihoyatda chuqur badiiy va falsafiy yondashuvni namoyon etgan. Asarda o‘qituvchi, mudarris va muallim siymolari shunchaki bilim beruvchi shaxs sifatida emas, balki komil inson tarbiyasida beqiyos rol o‘ynovchi ma’naviy murabbiy, yo‘l ko‘rsatuvchi, jamiyatning axloqiy poydevorini barpo etuvchi siymo sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, “Mudarrislar zikrida” va “Dabiriston ahli zikrida” boblarida ustozlik burchining naqadar og‘ir, mas’uliyatli va sharaflı ekani teran tasvirlanadi. Navoiy uchun ustoz – bu faqat dars beruvchi emas, balki shogirdni to‘g‘ri yo‘lga yetaklovchi, uning axloqiy barkamolligi uchun mas’ul bo‘lgan insondir. Ustozning so‘zi, qilgan harakati, yashash tarzining o‘zi ibrat bo‘lishi kerak. Asarda bu fikrlar faqat nasriy ta’riflar orqali emas, balki o‘tkir hikmatlar va baytlar orqali ham mustahkamlanadi.

Navoiy o‘z davrining ijtimoiy-madaniy hayotini chuqur tahlil qilgan holda, ustozlarning ilmsiz, faqat mansab va shon-shuhrat uchun ilmga da’vo qilishi, ma’naviyatsiz tarzda dars berishi jamiyat uchun qay darajada xavfli ekanini ham ko‘rsatib o‘tadi. Shu jihatdan, asarda faqat ideal ustoz emas, balki tanqid ostiga olingan soxta mudarrislar timsoli orqali salbiy namunalar ham yoritilgan. Asarda salbiy ustoz timsollari ham muhim tahliliy jihatdir. Navoiy ilmsiz, maqsadsiz, mansabparast va riyokor muallimlarni keskin tanqid qiladi. Ular jamiyatda johillik, buzuqlik va axloqsizlikka sabab bo‘luvchi omillar sifatida ko‘rsatiladi. Bunday obrazlar orqali muallif ustozlikning naqadar mas’uliyatli kasb ekanini, har kim ham

bu martabaga loyiq emasligini anglatadi. Bu esa zamonaviy ta’limda ham dolzarb masala bo’lib, o’qituvchilarning malaka va axloqiy darajasi ta’lim sifati va natijasiga bevosita ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi. Bu esa Navoiy mulohazalari realizmga asoslanganini, idealizmdan holi emasligini, balki hayot haqiqatlariga tayanganini ko’rsatadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Alisher Navoiy tomonidan chizilgan ustoz timsoli faqat o’z davri uchun emas, balki bugungi kunda ham pedagogika, ta’lim va tarbiya sohasida faoliyat yuritayotgan kishilar uchun dolzarb namuna va yo’l-yo’riqdir. Navoiy ijodining abadiyligi ham, aynan, ana shunday umuminsoniy qadriyatlarni teran badiiy talqin qilishida namoyon bo’ladi. Uning ta’lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari, ustoz-shogird munosabatlari haqidagi qarashlari zamonaviy o’qituvchilar etikasi, shaxsiy fazilatlari va jamiyatdagi o’rnini aniqlashda hanuzgacha katta ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, zamonaviy ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirish, intellektual jamiyatni shakllantirish, milliy g’urur va ma’naviyatni mustahkamlashda ustoz shaxsini markazga qo’yadi. Shu bois, Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida ifodalangan ustoz timsolini chuqur o’rganish, uni bugungi talablarga mos holda talqin qilish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki komil ustoz – komil jamiyatning asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot nashriyoti, 1998.
2. Sirojiddinov Sh., Yusupova D. (2018). Navoiyshunoslik. Toshkent: Tamaddun, 2018.
3. Hoshimova M. Alisher Navoiyning Mahbub ul-qulub asarida ma’naviy-axloqiy qarashlar // Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosi – mo’tabar madaniy manba konferensiyasi materiallari. – Toshkent: 2024.
4. Tashpulatova D. Kh. (2022). “Alisher Navoiyning Mahbub ul-qulub asarida yoshlarni tarbiyalashda xalq maqollarining roli”. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosi – mo’tabar madaniy manba konferensiyasi materiallari. – Toshkent: 2024.